

O'ZBEKISTONDA SAVDO XIZMATLARI FAOLIYATINING HOZIRGI HOLATI VA O'ZGARISHLARI TAHLILI

Safarov Radjabboy Eshmuxammadovich,
Farg'onan soliq texnikumi bosh o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada savdo xizmatlari sohasini tadqiq etishning nazariy-metodik jihatlari yoritilgan bo'lib, ilmiy adabiyotlarda keltirilgan mualliflik ta'riflari tanqidiy tahlil qilingan holda mualliflik talqinidagi takomillashgan ta'rifi ishlab chiqilgan, savdo xizmatlari sohasini milliy iqtisodiyotning alohida xizmatlar sohasi tarmog'i sifatida o'rni va ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: savdo, savdo xizmati, raqobatbardoshlik, iste'mol qiymati, tovar-pul munosabati, barter usuli.

Insoniyat tarixida savdo-sotiq munosabatlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi uzoq o'tmishta borib taqaladi. Natural xo'jalik davrida mahsulot ayriboshlash va savdo-sotiq kabi tushunchalarga o'rinn bo'lmasan. Zeroki, har qanday mahsulot, uni yetishtirgan jamoaning o'z ehtiyojlari uchun ishlab chiqarilgan. Biroq, ishlab chiqarishning tobora ixtisoslashuvi va alohidalashuvi natijasida kishilik jamiyatida tovar xo'jaligi vujudga keldi. Bu esa, pirovardida, tovar ayriboshlash va savdo-sotiqqa keng yo'l ochib berdi.

Dastlab savdo-sotiq, asosan, barter usulida, ya'ni tovarni tovarga ayriboshlash orqali amalga oshirilgan. Keyinchalik umumiylar ekvivalent vazifasini ayrim tovarlar va qimmatli metallar bajargan. Savdo – sotiq hajmining tobora ortib borishi umumiylar ekvivalent sifatida pulning vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Savdo-sotiq insonlarning kundalik hayotidagi eng ko'p uchraydigan munosabat bo'lib, uzoq tarixga ega hisoblanadi. Qadimdan barcha xalqlar, xususan Buyuk ipak yo'lida joylashgan bizning diyorimizdagi tarixiy shaharlarimizning aksariyat aholisi dehqonchilik va hunarmandchilik qatorida savdo soxasida ham keng ko'lamda faoliyat ko'rsatganlar.

Savdo ming yillar davomida sivilizatsiyaning o'zagi bo'lib kelmoqda. Savdo insoniyatning boshqalar bilan bog'lanishga, yangiliklarni, yangi o'lkalarni va yangi mahsulotlarni kashf qilishga bo'lgan ishtiyoyqining natijasidir.

Islom paydo bo'lgunga qadar Arabiston yarim orolida savdo-sotiq nihoyat darajada rivojlangan va qarz oldi-berdisida ribo (sudxo'rlik) keng tarqalgan amaliyot hisoblangan. Islomgacha bo'lgan dinlarning, deyarli, barchasida ribo taqiqlangan bo'lishiga qaramay, tadbirkor va tojirlar tomonidan u oddiy hol sifatida qabul qilingan.

Bizning diyorlarimiz qadimdan muqaddas islom dini ulamolari ko'p yetishib chiqqan diyorlardan hisoblanadi. Shu bois aksariyat musulmon aholi kundalik hayotidagi faoliyatlaridan biri bo'lgan savdo bo'yicha ham islom shariatining asosiy manbasi bo'lgan qur'onda qanday hukmlar borligi bilan qiziqib kelganlar. Shu ehtiyoj

sababli ulamolar tomonidan ushbu mavzularda ham asarlar yozilgan. Jumladan, ularda:

“Alloh taolo:

“...**Alloh savdoni halol va riboni harom qilgan**”, degan (*Baqara surasi, 275-oyat*).

Sharx: Biz savdo deb tarjima qilgan so‘z arab tilida “bay” deyilib, lug‘atda o‘zaro bir narsani almashtirishni anglatadi.

Shariyatda esa bir molni ikkinchi bir molning muqobiliga rozi bo‘lib qabul qilib olishga “bay” deb aytildi.

Qisqa qilib aytganda, “savdo” so‘zi “tijorat” so‘zidan ko‘ra umumiyoq bo‘lib, bugungi kunning istilohida “bozor iqtisodi” ma’nosiga yaqinroq keladi.”²⁵

Savdo bugungi kunda ham iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biridir. Savdo tushunchasiga turli adabiyotlarda bir-birini to‘ldiruvchi fikrlar bayon etilgan.

N.V.Lofichenkoga ko‘ra, “Savdo – bu odamlarning alohida faoliyat turi bo‘lib, oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan, ayriboshlash jarayoniga xizmat ko‘rsatishga qaratilgan aniq texnologik va iqtisodiy operatsiyalar majmuidir”.²⁶

K.B.Urazovning ta’kidlashicha, “Savdo tovar-pul munosabatlарining majmuasidir. Ushbu munosabatlarda bir tomondan sotuvchi, ikkinchi tomondan esa sotib oluvchi ishtirok etadi. Tovar-pul munosabatlari majmuasi savdoni iqtisodiyotning maxsus tarmog‘i darajasida harakat qilishiga olib keladi”.²⁷

B.A.Abdukarimov savdoni xizmat sifatida keng ma’noda, “Savdo – xizmatning alohida turi bo‘lib, u bir tomondan ishlab chiqaruvchilarga xizmat qiladi, ikkinchi tomondan iste’molchilarga, uchunchi tomondan Davlatga xizmat qiladi va to‘rtinchidan u boshqa iqtisodiyot tarmoqlari va soxalariga ham xizmat ko‘rsatadi, ularni xizmatlaridan iste’molchi sifatida foydalanadi va ular bilan aloqada bo‘ladi” deb ta’kidlagan.²⁸

Savdo – tovar muomalasining bir turi, mehnat mahsulotlari va xizmatlarni oldisotdi yo‘li biln ayriboshlash shakli²⁹.

Savdoda tovar xaridi miqdori, tovar sifati, sotishdan oldin yoki keyin xizmatlar ko‘rsatish, sotib olingan tovar yoki xizmat haqini hisob kitob qilish tartibi va boshqalar shartlashiladi;

Savdo-sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi qiymat almashuviga doir munosabatlar. Tovar ishlab chiqarish paydo bo‘lishi bilan tovarlarni pul vositasida ayriboshlash, ya’ni savdo vujudga kelgan. Xalq xo‘jaligining ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida ajralib chiqqan va tovarlarni olish-sotish va ular bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatishda vositachilik faoliyatini amalga oshiradigan tarmog‘i. Ishlab chiqarish bilan

²⁵ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 11-juz. Savdo, ziroat va vaqf –T.: “Hilol-Nashr” 2019. – 304 b.

²⁶ Osobennosti ucheta v torgovle. N.V.Lofichenko. Uchebnoye posobiye. Chast-1. Chelyabinsk-2010.

²⁷ Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. K.B.Urazov, S.V.Vaxidov. Darslik. Toshkent-2010.

²⁸ Ichki savdo iqtisodiyoti. B.A.Abdukarimov. Darslik, I-qism. Toshkent-2007.

²⁹ «O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. S harfi

iste'molni o'zaro bog'laydi, tovarlarni so'nggi iste'molchi (aholi)ga yetkazishni ta'minlaydi

Bizning fikrimizcha, darhaqiqat savdo keng qamrovli tushuncha bo'lib, bir tomondan maxsus faoliyatni, ikkinchi tomondan esa iqtisodiyotning alohida tarmog'ini ifodalaydi. Bunda ushbu munosabat ishtirokchilari o'zaro kelishuv asosida tovarlarni pulga ayriboshlashni amalga oshiradilar.

Bugungi kunda yurtimiz barcha soxalardagi o'zining yangicha islohotlari va ularning ijobiy samaralari bilan dunyo hamjamiyati nigohida haqiqatdan ham Yangi O'zbekiston sifatida namoyon bo'lib bormoqda. Bu esa o'z navbatida har bir davlatning asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikka erishishdek doimiy vazifaning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish. Yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish. Pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini o'zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish orqali 2030-yilga borib yillik inflatsiyani 5-6 foiz darajasida ta'minlash." degan fikrlari bunga yaqqol misol bo'ladi.³⁰

Makroiqtisodiy barqarorlik mamlakat iqtisodiy o'sishini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Makroiqtisodiy barqarorlik deganda – mamlakatda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning muvozanati buzilmasdan iqtisodiyot barqaror holda rivojlanishi tushuniladi.

Barqaror iqtisodiy o'sishning eng muhim garovi – raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ular uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko'paytirish, tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish hisoblanadi.

Har qanday mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridan eng asosiysi bo'lgan yalpi ichki mahsulot tarkibida savdo xizmatining alohida o'rni bor. Xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, uning tarkibiy qismini rivojlanishida asosiy o'rni tutadi. U iqtisodiyotning turli soha vakillari bandligini ta'minlaydi, bo'sh vaqtlarini oshirishga yordam beradi, inson va jamiyat ehtiyojlarini yanada to'liq qondirish va rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi, zamonaviy hayot sifat darajasini shakllantirishning muhim qismi bo'lib xizmat qiladi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmatlar sohasida ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi iqtisodiy o'sishning asosiy omillari shakllanmoqda

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" Strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari <https://www.qrstat.uz/uz/>

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o‘z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko‘rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste’molchilarga ham ko‘rsatilishi mumkin.

1-jadval

2018 – 2023 – yillarda Xizmatlar sohasining O‘zbekiston Respublikasi YAIMidagi ulushi³¹ (mlrd. so‘m)

	201 8	201 9	202 0	202 1	202 2	202 3	202 4
YAIM	426 641,0	532 712,5	605 514,9	738 425,2	888 341,7	106 6569	
Xizmatla r	151 512,6	192 929,1	223 049,8	272 109,1	357 374,3	462 890,9	
Xizmatla rning YAIM dagi ulushi, % da	35,5	36,2	36,8	36,8	40,2	43,4	

Yil yakunlariga ko‘ra, xizmatlar sohasining O‘zbekiston Respublikasi YAIMidagi ulushi 2018-yilda 35,5%, 2019-yilda 36,2%, 2020-yilda 36,8, 2021-yilda 36,8%, 2022-yilda 40,2 % va 2023-yilda 43,4 % ni tashkil etdi. (1-jadval)

Xizmatlar sohasining o‘sishi Respublikada jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, zamonaviy tarmoqlarning shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan inson kapitalini rivojlantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratilganligi bilan bo‘g‘liq.

Xizmatlar sohasi ko‘lami juda xilma-xildir. Bunga mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan mijozga etkazib berish, shu qatorida ko‘ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish, shuningdek, sartaroshxonalar, restoranlar, ta’mirlash ustaxonalar, sport klublari, sayyoqlik agentliklari va boshqalar kiradi. Lekin bu xizmatlarning pirovard natijasi savdolashish hisoblanadi.

³¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari, stat.uz

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari, stat.uz

2-jadval

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
(2022 - 2023 - yillar, trln. so'mda)³²**

	202 2 - yil	2023 yil	-	O'sish sur'ati,	
				trl n. so'mda	% da
Xizmatlar - jami	357 ,6	463,3	+ 105,7	12 9,6	
Savdo xizmatlari	88,9	110,7	+21 ,7	124 ,5	
Transport xizmatlari	81,0	108,5	+27 ,5	133 ,9	
Moliyaviy xizmatlar	80,4	106,4	+26	132 ,3	
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	22,9	32,2	+9, 3	140 .6	
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	15,4	20,4	+5	132 ,5	
Boshqa xizmatlar	13,2	19,9	+6, 7	150 ,7	
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	11,3	18,3	+7	161 ,9	
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	9,7	12,1	2,4	124 ,7	
Shaxsiy xizmatlar	8,7	10,9	2,2	125 ,3	
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	7,3	8,4	1,1	115 ,1	
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	6,3	8,0	1,7	127	
Ijara xizmatlari	6,4	7,5	1,1	117 ,2	
Kompyuter ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	5,9	7.0	1,1	118 ,6	

2023 - yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **463,3** trln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **29,6 %** ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlarning 32,3 % ga, savdo xizmatlari 24,5 % ga, transport xizmatlari 33,9 %ga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 40,6 %ga, ta'lim sohasidagi xizmatlarning 32,5%ga o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning eng katta hajmi savdo xizmatlari (110,7 trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati - 110,2 %), transport xizmatlari (108,5 trln.so'm, 108,0 %) va moliyaviy xizmatlar (106,4 trln.so'm, 120,6 %)ga to'g'ri keladi.

Xulosa va takliflar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy maqsadi davomli foyda olshni ta'minlovchi ish faoliyatini yo'lga qo'yib olish bo'lganidek, har bir davlatning ham iqtisodiy siyosatining bosh maqsadi – mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikka erishish va uni iloji boricha yangi xatarlarga bardosh berishi uchun kerakli choralarni ko'rishga harakat qilishdir.

Shu ma'noda Yangi O'zbekistonda iqtisodiy taraqqiyotga erishish uchun barcha soxalardagi tub islohotlar jarayonida yurtimiz rahbariyati tomonidan savdo soxasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Olib borilayotgan ushbu islohotlar ortidan iqtisodiyot tarmoqlaridagi buxgalteriya hisobini yuritishga bo'lgan yangicha talablar ham kelib chiqadi. Chunki endilikda buxgalteriya hisobi axborotlaridan eng asosiy foydalanuvchilar davlat nazorat organlari emas, balki birinchi navbatda, xo'jalik yurituvchi subyektlarining rahbariyati va uning kelgusidagi faoliyatiga qiziquvchi investorlar hisoblanmoqda. Tabiiyki, ular talab qiladigan axborotlarni qulay tarzda va samarali usullar orqali yetkazib berishni ta'minlashga qaratilgan buxgalteriya hisobi tizimini yaratish kun tartibiga chiqib kelmoqda.

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan va tadbirkorlik faoliyatining keng tarqalgan turlaridan biri bo'lgan savdo, jumladan ulgurji savdo mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlari hajmida tobora o'sib borayotgan soxa hisoblanadi.

Ulgurji savdo korxonalari faoliyatining asosini Tovar operatsiyalari tashkil etganligi uchun, ularning buxgalteriya hisobini yuritishning alohida xususiyatlari mavjud. Shuningdek, so'nggi yillarda tovar nomenklaturalarining alohida tasnif kodlari va o'lchov birliklari bo'yicha alohida qadoq kodlari va boshqa talablar joriy etilishi ulgurji savdo korxonalari tomonidan buxgalteriya hisobi yuritishni samarali tashkil etish vazifasini ham keltirib chiqardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Valeeva Yu.S. Roznichnye torgovye seti: sostoyanie i tendentsii razvitiya. Monografiya: Redaktsionno-izdatel'skiy tsentr, Kazanь - 2012. - 148s.
2. Valigurskiy D.I., Chernonosova N.V. TSeli, zadachi i usloviya vnedreniya merchendayzinga v roznichnoy torgovle // «Fundamental'nye i prikladnye issledovaniya kooperativnogo sektora ekonomiki». Nauchno-teoreticheskiy журнал – 2010. – №5. – S.20-21. - 0,3 p.l.
3. Gavrilova, V.N. Tendentsii razvitiya obslujivaniya potrebiteley roznichnykh torgovyx setey [Tekst] / V.N. Gavrilova // Yejemesyachnyy nauchnyy журнал. 2015. № 4 (11). Materialy XI Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii "Razvitie ekonomiceskix i mejotraslevykh nauk v XXI veke", 16- 17 maya 2015 / Nauch. in-t global'noy i regional'noy ekonomiki. Novosibirsk, 2015. S.10-11
4. Normurodov U.N. Chakana savdo korxonasi raqobatbardoshligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. // Servis журнali. – Samarqand., 2019 y, 2-son, 34-36 b.
5. K.M.Ibodov. Monopoliyaga qarshi boshqaruв nazariyasi. O'quv qo'llanma.T.: "IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti, 2020 yil. – 308 bet. 81-82 betlar; Ibodov K.M., Bank xizmatlari raqobatbardoshligining marketing tadqiqotlari: Monografiya.; - Toshkent "Navro'z" nashriyoti. 2016 yil.-156 bet
6. Muminov U.M. Qishloq xo'jaligida raqobat muxitini shakllantirish va rivojlantirish. Iqt.fan.nomz. ...dis aftoref. T-2008 y. -24 b
7. Hasanov S.Sh "Mintaqaning raqobatbardoshlik afzalliklari va ulardan samarali foydalanish (Surxondaryo viloyati misolida)" Iqt.fan.nomz. ...dis aftoref. Toshkent 2011 y. – 32 b
8. Nasriddinova M. Biznes strategiyasi.O'quv qo'llanma.-T.:Sharq 1996.-80 b.
9. I.B.Sharipov, Z.A.Xakimov. Yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini baholash uslublarini takomillashtirish // "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron журнali. № 3, may-iyun, 2017 yil.
10. Muallif ishlanmas